

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ  
ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ**

**Андижон Кишлоқ Хўжалик Институтини**

**“Ўсимликлар химияси ва карантини” кафедраси**

**“Микробиология ва биотехнология асослари” фанидан**

# **РЕФЕРАТ**

***Мавзу:** Хавфли карантин хашорат Америка оқ  
капалагининг ҳаёт кечириши, тарқалиши йўллари.*

**Топширди:** Агр факултети Ўсимликлар химияси  
ва карантин таълим йўналиши 2-босқич 1-гуруҳ  
талабаси Г.Тошмухаммедова

**Қабул қилди:** қ.х.ф.н. Мирзаева. С

**Андижон - 2014 йил**

*Mavzu: Xavfli karantin xashorat Amerika oq kapalagining (Hyphantria cunea Drury) xayot kechirishi tarqalish yo'llari*

## **Reja**

- 1. Amerika oq kapalagi zararkunandasi to'g'risida tushuncha.***
- 2. Zararkunanda tarqalgan mamlakatlar hamda tarqalish yo'llari.***
- 3. Amerika oq kapalagining xayot kechirishi.***
- 4. Unga qarshi karantin chora tadbirlar.***

## **Amerika oq kapalagi (*Hyphantria cunea Drury*)**

Amerika oq kapalagi O'zbekiston davlati uchun o'ta karantin ahamiyatga ega bo'lgan zararkunandalar, kasaliklari va ashadiy begona o'tlar ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, O'zbekiston xududiga uchramaydigan xavfli karantin ob'ekti xisoblanadi.

Amerika oq kapalagi qurtlari 300 turdagi har xil meva daraxtlar barglarini, dekorativ va o'rmon daraxtlari hamda butalarning bargini, ayniqsa tut bargini yeb qo'yadi, ba'zan turli poliz va dala o'simliklariga ham tushadi.

### **Tarqalishi.**

Vatani SHimoliy Amerika (AQSH va Kanadaning janubi) xisoblanadi. 1939 yilda yevropadagi Vengriya keyinchalik CHexoslovakiya, Ruminiya, YUgoslaviya, Avstraliya va Bolgariya, 1948 yilda Janubiy Koreya va YAponiyada, 1966 yilda Moldaviyada qayd qilindi va tez orada SHimoliy Kavkaz-Volga bo'yi atrofidagi rayonlarga, Kaspiy dengiz G'arbiy qirg'og'idagi o'lkalarga tarqalgan.

Xozirgi kunda bu xashorat O'rta Osiyoning Qozog'iston va Qirg'iston hududlarida tarqalganligi aniqlangan. Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston xududlariga tarqalish xavfi tug'ilmoqda.

Amerika oq kapalagi qishloq xo'jaligiga, ayniqsa ipakchilik xamda bog'dorchilikka katta zarar keltiradi. Bu xashorat ulkamiz iqlim sharoitiga tez moslashib ketishi sababli juda xavfli karantin xashoratidir. U tut, olma, nok, urik, yong'oq, bexi hamda urmon daraxtlarining barglariga katta zarar yetkazadi.

Voyaga yetgan kapalaklari qanotlarini yozganda kattaligi 4-5 sm keladi. Rangi oq, erkagining mo'ylovlari patsimon, urg'ochisining mo'ylovlari ipsimon bo'ladi. Qo'ygan tuxumlari ko'pincha oq tuk bilan qoplangan bo'ladi. Qurtning kattaligi 3,0- 3,5 sm gacha, orqasi bo'ylab 2 qator yo sariq yoki havo rang tusda

tovlanib turadi. G'umbagi siyrak kulrang pilla ichida bo'lib, uzunligi 8-10 mm, rangi to'q qo'ng'ir, tanasining uchida 10 tadan 19 tagacha qarmoqsimon tuklari bor. Amerika oq kapalagi yangi rayonlarga ko'chat va transport vositalari bilan o'tishi mumkin, bir qadar yaqin joylarga kapalaklari ayniqsa yo'l-yo'lakay shamolda uchib o'tish yo'li bilan tarqaladi.

### **Hayot kechirishi.**

G'umbakli stadiyasida qishlaydi. Pillasi daraxt po'slog'ining yoriqlarida, shoxlarining ayrim qismlarida, daraxtlar tagidagi hazon orasida, devorlar yoriqlarida va tuproqning yuza qatlamlarida bo'ladi. Ko'klamda kapalaklar chiqadi, ular tunda hayot kechiradi. O'sha o'simliklarning bargiga tuxum qo'yadi. Ayniqsa tut bargini xush ko'radi. Bir joyga 500 ta tuxum qo'yadi. Ularning ustiga urg'ochi kapalak qornidan yupqa momiq chiqarib bekitadi. Urg'ochi kapalak 2000 tagacha tuxum qo'yadi.



### **Amerika oq kapalagi (*Hyphantria cunea Drury*):**

1-erkak imagosi; 2-urg'ochi imagosi; 3-4-5- qurti; 6-pilla; 7-g'umbagi; 8-g'umbakning orqasi; 9-urg'ochisining gentaliysi; 10- erkagining gentaliysi.

Daslab ikki yoshigacha qurtlar ochiqda yashab, barglarini yeb faqat tomirini qoldiradi. 3- yoshdan boshlab qurtlarning koloniyalari o'simliklarda o'zlaridan chiqqan indan o'rgamchak uyalarini qurib barglarni batamom yeb qo'yadi, yoki faqat yo'g'on tomirini qoldiradi, 4 yoshidan boshlab butun daraxt buylab tarqalib yashaydi.

O'rta yevropa sharoitida qurtlar 45-54 kun rivojlanib, keyin pilla o'raydi va g'umbakka aylanadi. 8-14 kundan keyin, g'umbaklardan kapalaklarning yangi avlodlari yetilib chiqadi.

Evopada oq kapalak yiliga ikki marta nasl beradi. Ba'zi joylarda uchinchi marta hama nasl bergan, lekin bu naslning qurtlari qora sovuqda o'lib qoladi.







### **Kurash choralari.**

O'zbekistonga transport vositalari yuki bilan zararkunanda kelib qolmasligi uchun ularni tomojniy chegara maskanlarida, aeroportlarda va shunga o'xshagan boshqa joylarda, karantin inspektorlari sinchiklab tekshiradilari. Oq kapalak tarqalgan joylardan xazonni yo'q qilish va zararkunanda tushgan yerlarni kuzda shudgorlab qo'yish kerak.

Amerika oq kapalagiga qarshi kurashish uchun asosiy chora-zararkunanda tushgan yerlarni mikrobiopreparatlari bilan ishlov beriladi. Entobakterin 3 kg/ga, bitoksibatsillin 2 kg/ga, depidotsid 1 kg/ga, dipel 0,5 kg/ga.

***Adabiyotlar***

- 1.Paspelova S.M. i dr. «Osnovm karantina selskoxozyaystvennmx rasteniy» M. «Kolos» 1983 g.*
- 2.Voronkova L.V. i dr. «Karantin rasteniy v SSSR» M. «Agropomizdat» 1986 g.*
- 3.Spravochnik po karantinu selskoxozyaystvenmx rasteniy M. izd. «Qolos» 1985g.*
- 4.Kimsanboyev X.X. va boshqalar. «Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi» T. «O'qituvchi» 2002 y.*